

BADIIY ADABIYOTDA EPIGRAFNING QO‘LLANILISHI: JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTI TALQINIDA**Abduraimova Zaxro Abdizokirovna***Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy adabiyotda epigrafning qo‘llanilishi jahon va o‘zbek adabiyoti misolida qiyosiy jihatdan tahlil etiladi. Epigrafning kelib chiqishi, uning badiiy matndagi funksional vazifalari hamda asar g‘oyaviy-mazmuniy yo‘nalishini belgilashdagi o‘rni yoritib beriladi. Jahon adabiyotida epigrafning o‘ziga xos qo‘llanilish xususiyatlari ochib berilar ekan, o‘zbek adabiyotida uning axloqiy-estetik va ma‘naviy yo‘naltiruvchi jihatlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, epigrafning kitobxon uchun asarning umumiy mazmuniga ishora qiluvchi yo‘naltiruvchi belgi sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *epigraf, badiiy matn, jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, qiyosiy tahlil, funksional vazifa, g‘oyaviy-mazmuniy yo‘nalish, ma‘naviy-axloqiy jihatlar.*

Аннотация: *В этой статье эпиграф в художественной литературе применяется на примере мировой и узбекской литературы сравнительно анализируется. Происхождение эпиграфа, его функциональные задачи в художественном тексте, а также роль в определении идейно-содержательного направления произведения освещаются. В мировой литературе особенности применения эпиграфа раскрываются, а в узбекской литературе его морально-эстетические и духовно-направляющие стороны особое внимание получают. Также эпиграф для читателя как направляющий знак, указывающий на общий смысл произведения, значение обосновывается.*

Ключевые слова: *эпиграф, художественный текст, мировая литература, узбекская литература, сравнительный анализ, функциональная задача, идейно-содержательное направление, морально-этические аспекты.*

Abstract: *In this article, the epigraph in fiction is comparatively analyzed using examples from world and Uzbek literature. The origin of the epigraph, its functional tasks in a literary text, and its role in determining the ideological and content direction of the work are highlighted. While the specific features of using epigraphs in world literature are revealed, special attention is paid to its moral, aesthetic, and spiritual-guiding aspects in Uzbek literature. Furthermore, the significance of the epigraph as a guiding sign for the reader, indicating the general meaning of the work, is substantiated.*

Keywords: *epigraph, literary text, world literature, Uzbek literature, comparative analysis, functional task, ideological and content direction, moral and aesthetic aspects.*

Epigraf adabiyotda shunchaki chiroyli iqtibos emas, balki asarning "kichik make ti" va muallifning niyatini, asar mohiyatini ochib beruvchi muhim kompozitsion elementdir. Dastlab, u faqat qabr toshlari, binolar va sovg'alardagi ustki yozuvlar sifatida paydo bo'lgan. XV–XVI asrlarda kitob bosmachilik san'ati rivojlanishi bilan asarlarning sarlavha sahifalarida paydo bo'la boshladi. Adabiyotshunoslikda epigraf yunoncha epigraphe — "ustki yozuv" degan ma'noni anglatadi. Bu asarning yoki uning biror qismining boshida, sarlavhadan keyin qo'yiladigan qisqa iqtibos, maqol, hikmatli so'z, oyat yoki she'riy parchadir. Epigraf qo'llashning ommalashishi va adabiy an'anaga aylanishi XVIII asrga, ayniqsa Yevropada ma'rifatparvarlik va romantizm davriga to'g'ri keladi. Epigraf shunchaki bezak emas, balki asarning asosiy g'oyasini ochishga, muallifning niyatini tushuntirishga va kitobxonni asarga jalb qilishga xizmat qiladi.

Jahon adabiyotida epigrafdan quyidagi yozuvchilar foydalangan: Gyugo, Lev Tolstoy, Jek London, Gabriel Garsia Markes, Heminguey, Stendal, Dostayevskiy kabilar. O'zbek adabiyotida esa: Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Said Ahmad kabilar mahorat bilan foydalanishgan. Yevropada epigraf qo'llash XVIII asrda jadal rivojlangan bo'lsa, o'zbek adabiyotiga epigraf qo'llash an'anas i asosan XX asr boshlarida — ya'ni milliy uyg'onish davri va Jadidchilik harakati shakllangan davrda — adabiy uslub sifatida kirib keldi. G'arb va rus adabiyoti ta'sirida o'zbek adabiyotiga roman va qissa janrlari kirib kelishi bilan epigraf ham kirib keldi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor o'zining hikoyalarida epigraflardan mahorat bilan foydalangan. O'zbek adabiyotida epigrafning qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri o'zbek romanchiligining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

O'zbek adabiyotida epigraflar asosan ibratli maqol va matallar, g'azaldan olingan parchalar, she'riy misralar, shuningdek, axloqiy va diniy oyatlar yoki hadislardan iborat bo'lib, o'quvchiga ma'naviy-axloqiy hamda tarbiyaviy ma'no-mazmun beradigan iqtiboslar tarzida qo'llaniladi.

Misol uchun, Abdulla Qahorning "O'g'ri" hikoyasida "O'ynashmagil arbob bilan, seni urar har bob bilan" degan xalq maqoli epigraf sifatida keltirilgan. Shuningdek, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asari muqaddimasida quyidagi epigraf berilgan:

"Osmondagi bo'sto'rg'ay,
bo'zlamasang na bo'lg'ay?
Gulchehraning holini
so'zlamasang na bo'lg'ay?"
(Alyor)

Bundan tashqari, Abdunabi Hamroning "O‘tmagan kunlar" kitobida "Beshak, biling, bu dunyo barcha eldin o‘taro" (Xoja Ahmad Yassaviy) hikmati epigraf sifatida qo‘llanilgan.

Sharq adabiyotida epigraflar nafaqat badiiy asarning g‘oyasini ochishda, balki o‘quvchiga ibrat berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asarning umumiy ma‘no-mazmunini o‘zida mujassam etgan holda, axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalishda keng qo‘llaniladi.

Jahon adabiyotida esa, Sharq adabiyotidan farqli o‘laroq, epigraflar ko‘proq frazalar, falsafiy iqtiboslar, diniy manbalar hamda asosan boshqa yozuvchilarning asarlaridan olingan fikrlar asosida qo‘llaniladi. Bu holat ko‘pincha yozuvchining boshqa adib ijodiga bo‘lgan qiziqishi yoki hurmatini anglatadi va shu bilan epigraf sifatida keltirilgan asarni eslab o‘tish vazifasini ham bajaradi.

Misol uchun, Stendalning "Qizil va qora" asarida "Haqiqat, achchiq haqiqat" kabi falsafiy ibora keltirilgan. Rey Bredberining "Farengeyt bo‘yicha 451 daraja" asarida fantast yozuvchi Xuan Ramon Ximenesning quyidagi so‘zlari epigraf sifatida berilgan: "Agar senga chiziqli qog‘oz berishsa, ko‘ndalangiga yoz."

Ernest Xemingueyning "Quyosh baribir chiqaveradi" asari boshida amerikalik yozuvchi va munaqqid Gertruda Staynning "Sizlarning barchangiz — yo‘qotilgan avlod vakillarisiz" degan fikri epigraf qilib olingan. Bu jumla keyinchalik butun bir adabiy oqim — "Yo‘qotilgan avlod" nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan.

Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" asarida esa Iogann Volfgang Gyotening "Faust" asaridan quyidagi iqtibos keltirilgan:

"— Xo‘sh, kimsan o‘zi sen?"

— Men doimo yomonlikni sog‘inadigan, lekin doimo yaxshilik qiladigan o‘sha kuchning bir qismiman." Bu iqtibos Voland obrazining asardagi falsafiy vazifasini tushuntirib beradi.

Shuningdek, Onore de Balzak "Gorio ota" asari boshida yana Shekspirga murojaat qilib, "Hammasi haqiqat" ("All is true") degan iqtibosni keltiradi. Bu esa Shekspirning "Genrix VIII" asariga ishora bo‘lib, muallif o‘quvchini asardagi voqealar to‘qima emas, balki hayotiy ekaniga ishonitirmoqchi bo‘ladi.

Agata Kristining "O‘nta negr bolasi" asarida esa epigraf sifatida mashhur bolalar sanog‘i (qo‘shig‘i) ishlatilgan bo‘lib, u asar syujetidagi qotilliklar ketma-ketligining qat‘iy rejasini belgilab beradi.

Ko‘rinib turibdiki, jahon adabiyotida epigraf qo‘llanishi Sharq adabiyotidan ancha farq qiladi. Jahon adabiyotida yozuvchilar asarlaridan iqtiboslar epigraf qilib keltirilishining 1-sababi — g‘oyaviy hamfikrliligini ifodalash, ya‘ni yozuvchi o‘zi aytmoqchi bo‘lgan gapni kimdir undan avval chiroyli va lo‘nda qilib aytganini ko‘radi. Masalan, Bulgakov "Usta va Margarita"da Gyotening "Faust"idan iqtibos olib, "men ham o‘sha mavzuda, ya‘ni yaxshilik va yomonlik kurashi haqida yozmoqdaman", demoqchi bo‘ladi.

2-sababi esa hurmat bajo keltirishdir. Yozuvchi o‘zini o‘sha buyuk adibning davomchisi deb bilishini yoki o‘sha asardan ilhomlanganini bildiradi.

3-sababi kitobxonni kitob ruhiga tayyorlash, ya’ni iqtibos kitobxonni asarning kayfiyatiga soladi. Masalan, Xeminguey Gertruda Staynning "yo‘qotilgan avlod" haqidagi gapini keltirganda, kitobxon asarda urushdan keyingi ruhsiz va maqsadsiz yoshlar haqida o‘qishini darrov tushunadi.

4-sabab — asar mazmunini "shifrlash". Epigraf ko‘pincha butun bir romanning qisqacha xulosasi bo‘ladi. Kitobni o‘qib bo‘lgach, epigrafga qaytsangiz, uning ma’nosi yanada teranroq ochiladi.

Hozirgi vaqtda epigraflar turk adabiyotida keng qo‘llanilib, bunday asarlar ommaviy tarzda o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Turk adabiyotida ham epigraf asarning ajralmas va mazmunli qismi bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat asarning tarixiy va madaniy qatlamlarini ochib beradi, balki o‘quvchini asardagi Sharq va G‘arb falsafasi o‘rtasidagi murakkablikka tayyorlaydi. Masalan, O‘rxon Pomuqning "Qora kitob" romanida keltirilgan Shayx G‘olib yoki Farididdin Attor iqtiboslari orqali muallif o‘zining tasavvufiy va falsafiy mushohadalarini yanada teranroq ifodalash imkoniga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunda turk adabiyotida, ayniqsa, ruhiy-psixologik va intellektual yo‘nalishdagi asarlarda epigraflar muhim ahamiyat kasb etib, qahramonlarning ichki iztiroblari va o‘zligini izlash jarayoni bilan uyg‘unlashadi. Elif Shafaqning "Ishq" ("Qirq qoida") kabi asarlarida har bir bob boshidagi epigraflar asarning ruhiy muhitini va ilohiy ishq falsafasini oldindan his etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda epigraf asarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat asarning g‘oyaviy yo‘nalishini ochib beradi, balki o‘quvchini asar mazmuniga tayyorlaydi va uni muayyan ruhiy holatga olib kiradi. Epigraf orqali muallif o‘z fikrini yanada chuqurroq va ta’sirchanroq ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, epigraf o‘quvchi uchun qiziqarli va jalb etuvchi vosita hamdir. U kitobxonni o‘ylashga undaydi, asarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni mazmunni chuqurroq anglashga yetaklaydi. Shu bois, epigraf badiiy asarning nafaqat bezagi, balki uning mazmunini ochib beruvchi muhim kalit vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pomuq, O‘. Qora kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
2. Pushkin, A. S. Kapitan qizi (Roman). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
3. Qahhor, A. Tanlangan asarlar (Hikoyalar, qissalar). – Toshkent: Sharq, 2008.

4. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademiya nashri, 2013.
5. Xalizev, V. Ye. Adabiyot nazariyasi (Teoriya literaturasi). – Moskva: Visshaya shkola, 2002.
6. Bredberi, R. Farengiyt bo‘yicha 451 daraja. – Toshkent: Nihol, 2018.